

INGLIZ VA O‘ZBEK TILINING ZAMON SHAKLLARI VA O‘QUVCHILARNING BU TILNI O‘RGANISHDAGI QIYINCHILIKLARINING YECHIMI

Murodova Zarina Sherali qizi

“Malika education” xususiy maktabining

10-sinf o‘quvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtdoshimizning tilga bo‘lgan qarashlari, butun yer yuzi bo‘ylab ikkinchi til sifatida o‘qitilishi haqida va yetuk yoshlarga berilayotgan cheksiz imkoniyatlar, Ingliz tilining murakkab gramatikasi va o‘zbek tilining, bu tilga o‘xshashlik jihatlari bor ekanligiga guvoh bo‘lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: imkoniyat, gramatika, davlat, zamon, til, leksik, muammo.

**Xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha kelajak uchun
mustahkam poydevor bo‘ladigan ,yangi tizimni
yo‘lga qo‘yish vaqt-soati keldi.**

Shavkat Mirziyoyev. 6.05.2021.

Davlatimiz rahbarining xorijiy tillarni o‘rganish borasida yanadakuchli takomillashtirilgan dasturlarni ishlab chiqarish va yosh avlodni shu dolzarb bo‘lgan mavzuga qiziqtirish borasida ko‘pgina qaror va farmonlar ishlab chiqarilmoqda. Yosh kelajak asoschilariga zamonaviy dunyo bilimlarini o‘rganish bo‘yicha qulayliklar bisyorgina. Bular har xil xalqaro Ingliz tili imtixonlari bo‘lmish IELST, CEFR, LINGUOSKILL, TOEFL va boshqalar sizning ingliz tili darajangizni baholab beruvchi test bo‘lib, o‘quvchini ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. “Har bir shaxs o‘z kasbini professional darajada egallashi va jahon miqyosida raqobatlasha olishi

uchun chet tillarini yaxshi anglay olishi va ajoyib aloqa o‘rnata olishi zarur” degan fikrni ilgari suradi, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Shunday ekan, O‘zbekistonda ingliz tiliga bo‘lgan qiziqish va talabning ortib borishi natijasida, bu tilning xuddi o‘zbek tili kabi o‘rganish yuksak cho‘qqiga chiqdi deb baralla ayta olamiz. Jamiyki, hamma tillarda zamon tushunchasi va kategoriyasi mavjuddir. Asosan ingliz tilida zamon iborasi “Tense” atamasi orqali targ‘ib qilinadi. Ingliz tilida 4ta zamon bor bo‘lib, ularning har birining 4tadan shakli bordir. Shuni hisobga olgan holda 16ta zamon deb yuritiladi. Lekin o‘zbek tilida 3ta zamonda harakat va holatni bajarilgan davri keng miqyosida ifodalanadi. O‘zbek tilidagi bu xildagi zamonlar, umumiy holda ingliz tilining 16ta zamonini o‘z ichiga olganligini quyidagi hollarda ko‘rishingiz mumkin: Bizning tilimizdagi Oddiy hozirgi zamon 1ta shaklda ifoda etilsa, Ingliz tilida 4 turdagi shaklga ajratilga :

Present continuous tense(Hozirgi davom zamon)

Present Tense: Present simple tense(Hozirgi oddiy zamon)

Present perfect tense(Hozirgi tugallangan zamon) larni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilidagi yagona hozirgi zamon -yap(ti), -moqda, -(a)yotir, -(a)yotib qo‘shimchalarini oluvchi zamon “Present Simple” (Hozirgi zamon)ga mos ravishda talqin qilinadi.

O‘tgan zamon ham xuddi shunday, ingliz tilida “Past Tense” bo‘lib quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Past simple tense(Oddiy o‘tgan zamon)

Past Tense: Past continuous tense(O‘tgan davom zamon)

Past perfect tense(O‘tgan tugallangan zamon) Kabilari -ad qo‘shimchasi yoki noto‘g‘ri tuslanuvchi fe‘llar orqali ifodalay olamiz. O‘zbek tili morfologiyasida 1ta o‘tgan zamon bo‘lib, **-di** qo‘shimchasi bilan hamkorlikda insonlar o‘tgan voqea-hodisalarni tasvirlashda keng qo‘llaniladi. Ingliz tilida “Future Tense” iborasi bilan kelasi zamoni tanishimiz mumkin. Va bu ikkiga bo‘linadi:

Future continuous tense(Kelasi davom zamon)

Future Tense: Future Simple tense(Kelasi oddiy zamon)

Future perfect tense (Kelasi tugallangan zamon) ga bo‘linib ,**will/shall** yordamchilari tuslanishi orqali gapimizni mukammallashtiramiz.

Future continuous in the past (kelasi o‘tgan davom zamon)

Future tense: Future simple in the past (kelasi o‘tgan zamon)

Future perfect continuous in the past (kelasi tugallangan davom zamon) larga bo‘linib, **would/should** yordamchilarining turli shakllari orqali ifodalanadi. O‘zbek millatining nutqiy va yozma holatda **-a,-y,-(a)r** qo‘shimchalari va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan ingliz tili kelasi zamonning 8ta shaklidan farqli holda, 1ta yagona strukturaga egadir. Shuni bilamizki, har bir til o‘rganuvchi nafaqat zamonlarda, balki butun tilni o‘rganishda ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazishi bejiz emas. Bunday muammolardan biri talaffuz me‘yor va qoidalariga moslashishdir.

Jumladan: **C-tovushini** talaffuz qilishda [si], ba’zi hollarda esa aksincha [ki] tarzida talaffuz etiladi. O‘quvchining bunga yechim topishi uchun quyidagi ma’lumotga e’tibor berishi zarur: **A,O,U**-unlilaridan keyin kelgan **c** tovushi [ki] tarzida **E,I,Y**-unlilaridan so‘ng **c** tovushi [se] deya talaffuz etiladi.

O‘quvchilarning chalg‘itadigan va o‘rganish jarayonini qiyinlashtiradigan bo‘lim bu leksik qiyinchilikdir. Ular quyidagilardir:

O‘quvchi matn tuzish yoki tarjima bo‘limini bajarayotganda so‘zlarning turli ma’nolarini bajara olmaslik oqibatida tushkunlik domiga tushib qoladi. O‘zbek tilida ham bir so‘zning bir nechta ma’nolari bo‘lgani kabi, ingliz tilida ham mavjud va buni sinchkovlik bilan o‘rganmoq darkor. M. Norova takidlashicha “Ingliz tilida bitta so‘z maksimal 23ta ma’nosi bor” ekanligiga hayron qolmay ilojimiz yo‘q albatta.

Bir narsaga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘z Ona tilimiz zamonlari, Ingliz tili zamonlariga qisman o‘xshash shaklda ekanligini ko‘ra olishimiz mumkin.

Faqatgina til o‘rganuvchilaridan, o‘zining va boshqa tilarni solishtirib o‘rganish yaxshi natija beradi. Eng avvalo, o‘zga tilini o‘rganishdan oldin, o‘z ona tilingizning bilimlari yuksak darajada egallashingiz zarur.

Qanday qilib o‘z ona tilimizni bilmay turib, chet tilini mukammal o‘rganish mumkin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. N.Mahmudov,A.Normatov,A.Sobirov,D.Nabiev"6-sinf ona tili"2017-yil.Tosh.
2. Mehriniso Norova"Tarjima leksik birlik va leksik transformatsiyaning qo‘l nishi".Maqola
- 3.Shahboz Toshpo‘latov" Step by step".2020-yil.Tosh.213-214-betlar.
- 4.<https://yuz.uz>
- 5.B.Abdurahmonov,S.Mamajonov"O‘zbek tili va adabiyoti"1995-yil .Tosh.
- 6.Uz. Wikipedia.org sayti
- 7.R. Murphy"English Grammar in use"2020-yil.4-5-7-betlar.

